

XALQ BIRLASHADIGAN KUN

Shu yilning 18 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokidagi videoselektor yig'ilishida koronavirus muammosiga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda ushbu xavfli infeksiya dunyoning 160 dan ortiq mamlakatiga tarqaldi. Epidemiya keng yoyilib ketgani sababli Jahan sog?lijni saqlash tashkiloti uni pandemiya deb e?lon qildi. ?fsuski, bu yuqumli xastalik mamlakatimizni ham chetlab o?tmadi.

Bu vaziyat oldindan to?g?ri baholangan holda davlatimiz rahbari topshirig?i asosida Respublika maxsus komissiyasi tuzildi hamda yurtimizga kasallikning ommaviy kirib kelishi va keng tarqalishining oldi olinishiga erishildi.

Mamlakatimizning har bir hududida hokimlar rahbarligida maxsus shtablar tashkil etildi. Hududlar kesimida epidemiologik vaziyat bo?yicha kunlik ma?lumotlar tahlil qilinib, tezkor choralar ko?rib borilmoqda.

Prezidentimiz boshchiligidagi o?tkazilgan selektordan so?ng viloyat hokimi va o?rinbosarlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, soliq, sog?lijni saqlash, sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi markazi, xalq ta?limi viloyat boshqarmalari boshliqlari va boshqa ishchi guruh a?zolari ishtirokida viloyat shtabining tezkor yig'ilishi o?tkazildi.

Viloyat hokimi, maxsus shtab rahbari Shuhrat G?aniyev vaziyat to?liq nazorat ostida ekanini aytib, hech qanday xavotirga asos yo?qligi bois vahimaga tushmaslik borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqqa murojaati ma?no-mazmunini viloyatdagagi vaziyat bilan bog?lab tushuntirib berdi.

?ziz farg?onaliklar!

Muhtaram Prezidentimiz ta?kidlab o?tganlaridek, xalqimiz bu hayotning ko?p og?ir sinovlarini va yaxshi-yomon kunlarini boshidan kechirgan. Millati, tili va dinidan qat?i nazar, hammamiz yakdilmiz va, ishonamizki, bu qiyinchiliklar, albatta, o?tib ketadi.

Hozirgi kunda viloyat bo?yicha sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi markazlarida 335 ta, davolash profilaktika muassasalarida 2098 ta maxsus himoya kiyimi va vositalari, 2554 kg zararsizlantirish moddalari va 220 dona avtomaks (purkagich) apparatlari zaxirasi yaratildi. Viloyat hokimligi tomonidan qo?shimcha ravishda 1,2 tonna gipoklorid kalsiy zararsizlantiruvchi moddasi, 40 ta purkagich, 20 ta masofadan turib o?ichovchi termometr, 70 ta maxsus ish kiyimlar ajratildi.

Koronavirus infeksiyasiga guman qilingan bemorlarni yotqizish uchun shahar va tumanlarda 100 dan ortiq zaxira o?rinlari tashkil etildi. Viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi hamda 19 ta shahar va tuman bo?limlarida maxsus bokslar, malakali mutaxassislardan iborat 22 ta tezkor brigadalar shay holga keltirildi. Ularga maxsus reanimobillar biriktirilib, himoya vositalari bilan ta?minlandi. Har bir shahar-tumanda eng kerakli 21 xil turdag'i dori vositalari va tibbiy buyumlar zaxirasi yaratildi.

Viloyatning chegara hududlarida joylashgan 8 ta sanitariya-nazorat punktlari tibbiy ko?riklar o?tkazish uchun kerakli jihoz va anjomlar bilan ta?minlanib, tunu kun navbatchilik tashkil etildi. Chegara hududlarda bojxona postlari qoshidagi 5 ta nazorat punktlari masofadan turib istimali bemorlarni aniqlash uchun teplovizorlar bilan ta?minlandi.

Shu yilning o?tgan davrida viloyatimizga endemik davlatlardan qaytgan 508 nafar fuqarolar nazoratga olindi. Hozirgi kungacha 381 nafarida 14 kunlik tibbiy kuzatuv muddati tugadi, 2117 nafarida tibbiy kuzatuv davom etmoqda. Qиргизистон ва Тоҷикистон билан chegara hududlардаги 7 та chegara o?tkazish punktlarida chet el fuqarolarini yurtimizga kirib kelishi vaqtincha to?xtatildi.

Belgilangan tadbir asosida savdo va oziq-ovqat, maishiy xizmat va ijtimoiy soha obyektlari hamda aholi gavjum joylarda dizenfeksiya hamda zararsizlantirish ishlari olib borilmoqda. Viloyatdagi maktabgacha ta?lim tashkilotlari, maktab, o?rta maxsus va oliy ta?lim muassasalarini vaqtincha yopildi. Respublikamizning turli oliy ta?lim muassasalarida o?qiyotgan 8414 nafar farg?onalik talabalar to?liq yashash manzillariga yetib keldi. Farg?onaga boshqa viloyatlardan kelib ta?lim olayotgan 527 nafar o?quvchi va 3835 nafar talbalar uylariga qaytarildi.

Prokuratura va soliq organlariga bozorlarda oziq-ovqat mahsulotlari narxi sun?iy oshishining oldini olish bo?yicha tegishli vazifalar yuklatildi. Har bir hududda prokuratura, departament, soliq inspeksiyasi, dehqon bozorlari rahbarlari va boshqa mutasaddi idoralar mas?ul xodimlari ishtirokida ishchi guruhlari shakllantirildi.

Ishchi guruhlari tomonidan 27 ta dehqon bozorlari va ularda faoliyat olib borayotgan 15 mingdan ko?proq tadbirkorlar, 28 ta savdo komplekslari, 2950 ta oziq-ovqat do?konlari, 20 dan ziyod supermarketlar, 803 ta dorixonalar, 7 ta un va 2 ta o?simlik yog?i ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik sub?ektlari narxni asossiz oshirmaslik, aks holda jinoiy javobgarlikkacha bo?lgan choralar qo?llanishi xususida rasman ogohlantirildi.

Navro?z bayrami munosabati bilan dehqon bozorlarida aholiga arzon narxda kundalik zaruriy oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish uchun savdo yarmarkalari faoliyat ko?rsatmoqda. Shu bilan birga, viloyatdagи yirik savdo obyektlarida 521,6 tonna oziq-ovqat va qishloq xo?jaligi mahsulotlari zaxirasi shakllantirilib, sotib bo?lingan mahsulotlar o?rni peshma-pesh to?ldirilmoqda. Farg?ona, Marg?ilon va Qo?qon shaharlari aholisini qishloq xo?jaligi mahsulotlariga bo?lgan ehtiyojini to?liq ta?minlash maqsadida 17-31 mart kunlari tumanlardagi fermer, dehqon, chorvachilik xo?jaliklari tomonidan mahsulot yetkazib berish reja asosida amalga oshirilmoqda.

?yni shunday sinovli kunlarda viloyatning barcha hududlarida narx-navo barqarorligini ta?minlash, mahsulotni qo?ldan-qo?lga o?tishi va sifatini nazorat qilish, savdo tartib-qoidalarini qat?iy ta?minlash bo?yicha mahalliy hokimliklar, sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi markazi, soliq, monopoliya, statistika va veterinariya sohasi mutaxassislari biriktirilib, kunlik nazorat tizimi yo?lga qo?yilgan.

Ishonamizki, Ibn Sinoning vahimaning o?zi yarim kasallikdir, xotirjamlik yarim sog?liqdir, sabr esa shifoning boshlanishidir, degan hikmatli o?gitiga amal qilgan Farg?ona ahli milliy qadriyatlarimiz ruhida o?zaro ahil va inoq, hamjihat bo?lib, bu kasallikni yorug? yuz bilan yengib o?tishda faollik va fidoyilik xislatlarini namoyon etadilar.

Farg?ona viloyati hokimligi ?xborot xizmati

[Facebook](#), [Telegram](#), [Veb sayt](#), [YouTube](#)

2020-03-20 12:40:28